RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA PROFESSIONAL TA’LIM TALABALARINING AMALIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Fayzilloyeva Naima Baxodurovna
BDTU o‘qituvchi-stajori
E-mail: naimafayzilloyeva@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada raqamli ta’lim muhitining professional ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati, ayniqsa, amaliy kompetensiyalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar yordamida talabalarda kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metodik yondashuvlar, interaktiv platformalar va virtual o‘quv muhitidan foydalanish usullari yoritilgan. Muallif tomonidan taklif etilgan metodik model talabalarning real kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, professional ta’lim, amaliy kompetensiyalar, virtual laboratoriya, metodika, LMS

Аннотация. В статье анализируются роль и значение цифровой образовательной среды в системе профессионального образования, особенности её потенциала в формировании практических компетенций. Освещены современные методические подходы, интерактивные платформы и методы использования виртуальных образовательных сред, способствующие развитию профессиональных навыков студентов с использованием цифровых технологий. Предложенная автором методическая модель направлена на повышение готовности студентов к реальной профессиональной деятельности.

Ключевые слова: цифровое образование, профессиональное образование, практические компетенции, виртуальная лаборатория, методология, LMS

Abstract. The article analyzes the role and importance of the digital learning environment in the professional education system, especially its potential in the formation of practical competencies. Modern methodological approaches, interactive platforms, and methods of using virtual learning environments that serve to develop professional skills in students using digital technologies are highlighted. The methodological model proposed by the author is aimed at increasing students' readiness for real professional activity.

Keywords: digital education, professional education, practical competencies, virtual laboratory, methodology, LMS

Kirish

Jahon ta’limida talabalarda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi muhiti jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro hamkorligini amalga oshirishning kreativ usullari amaliy jarayonlarga keng tatbiq etilmoqda. Ilg‘or

ISSN 3030-3907

rivojlangan xorijiy mamlakatlar va yetakchi ilmiytadqiqot muassasalari tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha ta'limni rivojlantirish deklaratsiyasida (Incheon deklaratsiyasi) "Oliy ta'limda zamonaviy texnologiyalar, internet va ommaviy ochiq kurslardan foydalangan holda, masofadan, elektron o'qitish kurslarining dasturini ishlab chiqish"1 ustuvor vazifa sifatida belgingan.XXI asrda ta'lim jarayoni tubdan o'zgarib, raqamli texnologiyalar asosida yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Ayniqsa, professional ta'lim sohasida o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy talim texnologiyalaridan foydalanish, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda amaliy kompetensiyalarni shakllantirishni talab etadi.

Mamlakatimizning jadallik bilan rivojlanib borayotgan barcha jabhalarida bo'lganidek oliy ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Respublikamiz oliy ta'lim tizimida 1998-1999 yildan boshlab mustaqilta'limga bo'lgan e'tibor kuchaytirildi. Uning hajmi o'quv faniga ajratilgan soatlarning bakalavriatda 15-20 foizini, magistraturada esa 40-45 foizini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi oliy talim tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlarda mustaqil ta'lim o'quv jarayonining auditoriyadan tashqari shaki bo'lib, u kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan dastur bo'yicha nazariy va amaliy topshiriq shaklida tashkil etilishi ko'rsatilgan. Mustaqil ta'lim olish-oliy ta'lim tizimida talabalarning maqsadga yo 'naltirilgan o'quv faoliyatidirki, bunda talabalarning o'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi tomonidan mustaqil bilm olishga yo'naltiriladi (mustaqil o'rganish uchun mavzular va adabiyotlar tavsiya etiladi, mustaqil ish topshiriqlari beriladi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tavsiya etiladi, maslahatlar uyushtiriladi va bajarilshi nazorat qilinadi) va boshqariladi. Bugungi kunda talim sifati va samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri - bu talabalar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish va ularda mustaqil o'qish faoliyatini shakllantirishdan iborat. Talabalar dunyoqarashini shakllantirishda va o'zgartirishda kreativ texnikalarni qo'lab yechimni topish mumkin bo'lgan ijodiy vazifalar muhim ahamiyatga ega. Har qanday o'quv fani bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil o'quv faoliyati muhim hisoblanib, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Bugungi kunga kelib esa axborotlar olamidan bahramand bo'lishning tezlashgani, xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarining kengaygani, globallashuv jarayonlari jadallashgani bois talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish masalasi asosiy vazifa hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ishi bu talabaning o'ziga xos o'quv faoliyati bo'lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o'qishga qiziqtirishga va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan. Talabalarning mustaqil

ISSN 3030-3907

ishlari mazmuni mantiqiy fikrlashni, ijodiy faollikni, o‘quv materialini o‘zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog‘liq bo‘ladi. Odatda talabalarning mustaqil ishlari talabaning to‘la mustaqil faoliyati bilan birgalikda auditoriyadan tashqarida bajariladigan o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishini ham o‘z ichiga oladi. Izlanishlar va kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimining barcha pog‘onalarida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish va amaliy tajribalarni qo‘yishda texnologik muammolar yuzaga keladi. Ya’ni, aksariyat talabalarda mustaqil o‘qish va mustaqil ishlash ko‘nikmalari yetarlicha emas, shuning uchun o‘qituvchilar ko‘p hollarda talabalarga mustaqil ishlash uchun har doim bir xil shakldagi vazifalarni (taqdimot tayyorlash, seminarda ma’ruza qilish, test tuzish, konspekt qilish, referat yozishva hokazo) beradi. Bu esa talabaning ijodiy ishlash faoliyatiga salbiy ta’sit ko‘rsatadi.

Kasbiy ta’lim tizimi har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi. Bugungi globalizatsiya jarayonlari va mehnat bozorining tezkor o‘zgaruvchanligi sharoitida har bir davlat uchun yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ishlab chiqarish sohalarining innovatsion taraqqiyotini ta’minlay digan muhim omil hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va integratsiya jarayonlarining oshib borishi ham milliy ta’lim tizimlarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yanada oshirmoqda. Bu o‘z navbatida, iqtisodiyotning turli sohalari uchun mutaxassislarni tayyorlash jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasida kasbiy ta’lim tizimini isloh qilish, uni zamonaviy talablarga moslashtirish va xalqaro tajribalarni joriy etish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 16-oktabrda qabul qilingan PF-158-sonli Farmon mamlakatimizda kasbiy ta’lim sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini belgilab berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu farmonda ta’lim jarayonlarining integratsiyasini ta’minlash, raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etish va xalqaro standartlarga mos ta’lim dasturlarini ishlab chiqish belgilangan. Ta’lim tizimi nafaqat iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish, balki jamiyatning umumiy taraqqiyoti uchun ham asosiy omildir. Xususan, mehnat bozoriga muvofiq mutaxassislarni tayyorlash orqali mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini ta’minlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, ta’lim sifati jamiyatda bilimli avlodni shakllantirish orqali milliy taraqqiyot uchun mustahkam asos bo‘ladi. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini oshirish, uni jahon talablari darajasiga yetkazish va iqtisodiyotning yangi talablariga moslashuvchanlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida, ayniqsa, kasbiy ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu

ISSN 3030-3907

sektor mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda mutaxassislarni tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi. Prezident farmonida ta'kidlanganidek, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish, dual ta'lim amaliyotini tatbiq qilish va ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish O'zbekistondagi ta'lim sifatini yangi darajaga olib chiqish uchun strategik ahamiyatga ega bo'ladi.

Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari, mehnat bozorining xalqaro ko'lamdagi integratsiyasi va raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talabning ortishi milliy ta'lim tizimlarining xalqaro tajribalarga asoslanishini talab qilmoqda. Xalqaro ta'lim dasturlari orqali mahalliy ta'lim jarayonini jahon standartlariga moslashtirish imkoniyati yaratiladi. Xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilishi bir qator muhim afzalliklarni taqdim etadi: Birinchidan, bu dasturlar orqali o'quvchilar xalqaro miqyosda tan olinadigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Xususan, ularning diplomlari xalqaro bozorda tan olinishi, ularni jahonning turli mamlakatlarida mehnat qilish imkoniyatiga ega qilishda muhim rol o'ynaydi. Ikkinchidan, xalqaro ta'lim dasturlari innovatsion o'qitish metodlarini joriy qilish orqali o'quv jarayonining sifatini oshiradi. Masalan, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan dual ta'lim tizimi nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni ishlab chiqarish jarayoniga yaqinlashtiradi. Bu esa o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali yechim sifatida ko'rilmoqda. digan muhim omil hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va integratsiya jarayonlarining oshib borishi ham milliy ta'lim tizimlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yanada oshirmoqda. Bu o'z navbatida, iqtisodiyotning turli sohalari uchun mutaxassislarni tayyorlash jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamonaviy talablarga moslashtirish va xalqaro tajribalarni joriy etish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 16-oktabrda qabul qilingan PF-158-sonli Farmon mamlakatimizda kasbiy ta'lim sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini belgilab berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu farmonda ta'lim jarayonlarining integratsiyasini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish va xalqaro standartlarga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqish belgilangan. Ta'lim tizimi nafaqat iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish, balki jamiyatning umumiy taraqqiyoti uchun ham asosiy omildir. Xususan, mehnat bozoriga muvofiq mutaxassislarni tayyorlash orqali mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, ta'lim sifati jamiyatda bilimli avlodni shakllantirish orqali milliy taraqqiyot uchun mustahkam asos bo'ladi. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirish, uni jahon talablari darajasiga yetkazish va iqtisodiyotning yangi talablariga

ISSN 3030-3907

moslashuvchanlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida, ayniqsa, kasbiy ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu sektor mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda mutaxassislarni tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi. Prezident farmonida ta’kidlanganidek, xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish, dual ta’lim amaliyotini tatbiq qilish va ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish O‘zbekistondagi ta’lim sifatini yangi darajaga olib chiqish uchun strategik ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida xalqaro ta’lim dasturlari milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilinayotgani, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini xalqaro talablarga mos ravishda shakllantirishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Bu dasturlar orqali o‘quvchilar xalqaro standartlarga muvofiq bilimlarga ega bo‘lib, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi oshadi. Shuningdek, bitiruvchilarga xalqaro standartlarga mos diplom va sertifikatlarning taqdim etilishi ularning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dual ta’lim tizimi xalqaro ta’lim dasturlarining eng samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanadi. Ushbu tizim o‘quv jarayonini ishlab chiqarish amaliyoti bilan uyg‘unlashtirishga asoslangan. Bunda o‘quvchilarning nazariy bilimlari real ishlab chiqarish jarayonida qo‘llana di, bu esa ularning kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Prezident farmonida ta’kidlanganidek, dual ta’lim modeli O‘zbekistonda ham joriy etilib, mahalliy talablarga moslashtirilishi nazarda tutildi. Bu orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliyot orqali mustahkamlangan real kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Shuningdek, xalqaro ta’lim dasturlari O‘zbekistonning ta’lim tizimida ilg‘or texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy qilish uchun zamin yaratadi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan dasturlar orqali mahalliy o‘quvchilar xalqaro talablarga mos mutaxassis bo‘lib yetishadilar. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik orqali ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish va ularni mehnat bozorining murakkab talablariga moslashtirish imkoniyati yaratiladi.

Amaliy kompetensiyalar – bu talabaning o‘z kasbiga doir bilim va ko‘nikmalarni amaliy muhitda qo‘llay olish, mustaqil qaror qabul qilish, muammoni hal etish va jamoada ishlash qobiliyatidir. Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda raqamli vositalarning samarali qo‘llanilishi katta ahamiyatga ega.

1. Raqamli ta’lim muhitining imkoniyatlari

Raqamli ta’lim muhiti – bu o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni ta’minlaydigan, bilim va ko‘nikmalarni masofaviy yoki aralash shaklda egallash imkonini beruvchi texnologik platformalarning majmuidir. Ushbu muhit professional ta’limda quyidagi afzalliklarni yaratadi:

- Ta’lim resurslarining interaktivligi;

ISSN 3030-3907

- Individual o‘quv yo‘nalishini shakllantirish imkoniyati;
- Virtual tajribalar orqali real muhitga yaqin sharoitlarni yaratish;
- Masofaviy amaliy topshiriqlar va loyihalarni bajarish imkoniyati;
- O‘quv jarayonini monitoring qilish va tahlil qilish uchun analitik vositalar mavjudligi (LMS – Moodle, Google Classroom, Canvas va boshqalar orqali).

2. Amaliy kompetensiyalarni shakllantirish usullari

Talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- **Virtual laboratoriyalar:** real hayotdagi ishlab chiqarish sharoitlarini modellashtirish, eksperimentlar o‘tkazish;
- **Simulyatsion mashg‘ulotlar:** kasbiy vaziyatlarga asoslangan qaror qabul qilishni o‘rgatadi;
- **Loyiha asosidagi o‘qitish:** talabalar real muammolarni hal etish orqali amaliy ko‘nikmalarni egallaydi;
- **Muammoli ta’lim:** o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va amaliy echimlar ishlab chiqishga o‘rgatadi;
- **Gamifikatsiya:** ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini qo‘shish orqali motivatsiyani oshiradi.

3. Taklif etilayotgan metodik model

Muallif tomonidan professional ta’lim talabalarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi bosqichli metodik model taklif etiladi:

1. **Tahliliy bosqich:** talabalar bilim va ko‘nikmalarining dastlabki darajasi aniqlanadi;
2. **Loyiha va vazifalarni tanlash:** kasbiy faoliyatga yaqin real holatlar asosida loyihalar ishlab chiqiladi;
3. **Raqamli vositalardan foydalanish:** tanlangan loyihalarni bajarishda raqamli resurslar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar jalb qilinadi;
4. **Baholash va refleksiya:** yakuniy natijalar ko‘rib chiqiladi, o‘z-o‘zini baholash tizimi orqali tahlil qilinadi.

Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo‘llash sharoitida o‘qitishning faol va interfaol shakl va usullarining roli yanada ortadi. Raqamlashtirish jarayoni o‘quv faoliyatini tashkil etish uchun sifat jihatidan yangi imkoniyatlarni ochib beradi, shuningdek, tubdan yangi ta’lim ehtiyojlarini shakllantiradi. Bunday sharoitda uning didaktik salohiyati jihatidan turli texnologiyalar hamda o‘qitish metodlarining farqlanishi yanada ortib boradi. Ma’ruza mashg‘uloti kabi uzoq muddatli, faoliyat tuzilishiga ko‘ra bir xil bo‘lgan o‘quv-tarbiyaviy ishlarning “passiv” shakllarining roli sezilarli darajada kamayadi. Aksincha, talabalarning o‘z faoliyati, jamoaviy ish, interfaol muloqot, guruh va individual aks ettirish,

ISSN 3030-3907

murakkab tuzilishga ega bo‘lgan va talabalarning loyiha faoliyati kabi ma’lum bir ichki ssenariyga asoslangan pedagogik texnologiyalarning roli, barcha muqobil variantlarda, o‘yinni o‘rganish texnologiyalari, guruh bahslari va munozaralar, ishni hal qilish va boshqalar ortib bormoqda. Ushbu texnologiyalarning barchasi talabaga raqamli jamiyatda zarur bo‘lgan ijtimoiy vakolatlar majmuini shakllantirishga imkon beradi. Talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida didaktika ta’lim jarayonini va o‘qitishning ob’ekti bo‘lib, raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatning talablariga javob beruvchi, raqamli avlodning muhim ta’limiy xususiyatlarini e’tiborga oluvchi, real maqsadlarga erishishga qaratilgan o‘qitishning raqamli texnologiyalari va vositalaridan foydalangan holda, amalga oshiriladigan ta’lim jarayoni sifatida e’tirof etiladi.

Raqamli ta’lim muhiti professional ta’lim tizimida amaliy kompetensiyalarni shakllantirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Innovatsion metodikalar, virtual vositalar va interaktiv platformalar orqali talabalar real kasbiy sharoitlarga tayyorlanadi. Ushbu yondashuv professional ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

O‘rganilgan materiallarga asoslanib, biz raqamli kompetensiyaning o‘ziga xos ta’rifini shakllantiramiz. Raqamli kompetensiya – bu hayot davomida shakllangan, o‘quv jarayonida olingan bilim, ko‘nikma va malakalarga asoslangan, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda faoliyatda namoyon bo‘ladigan, raqamli texnologiyalarni xavfsiz va samarali tanlash va ulardan foydalanishga imkon beradigan o‘rnatish tizimini o‘z ichiga olgan shaxsning integral sifati, faoliyat, foydalanish jarayoni va natijasini tashkil etish va nazorat qilish qobiliyatidir. Raqamli texnologiyalar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida professional va ijtimoiy muammolarni hal qilish holatlarida namoyon bo‘lishga tayyorlik sifatida baholanadi. Raqamli kompetensiya raqamli kompetentlikning ma’lum bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli kompetensiya – bu raqamli texnologiyalardan foydalanishda keyinchalik amalga oshiriladigan ichki kognitiv ta’limdir. Holbuki, raqamli kompetentlik raqamli kompetensiya asosida shakllanadigan shaxsiy ta’limdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova N. “Ta’limda raqamli texnologiyalar”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
2. Rasulov B. “Professional ta’limda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish”. – Samarqand, 2021.
3. UNESCO. Digital Learning: A Strategy Guide. – 2023.
4. Moodle.org – Learning Management System.
5. Kozlov A.V. “Virtual laboratoriyalar va simulyatsion ta’lim”. – Moskva, 2020.

ISSN 3030-3907

6. Choriyev R.K., Kasb ta’limi mutaxassislarini dual ta’lim tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoref.- T.: 2020. 22 s.
7. Avliyaqulov A.K., Xodjayev N.S., “Professional ta’lim tizimida dual ta’limning modeli”, Xalqaro ilmiyamaliy konferensiya materiallari. Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, 2020-yil

ISSN 3030-3907